

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasiining jasoratining ifodalanishi**Boyxurozov Diyorbek Sherzod o‘gli**

(Toshkent davlat transport universiteti talabasi)

Annotasiya: Maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasiidagi Jaloliddinning jasorati, vatanga bo‘lgan muhabbati, shijoati, ifodalanishi haqida so‘z yuritilgan.

Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,

Yurt shaydosi ko‘rinmas g‘urbatda – go‘rda.

Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o‘shal!

Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Mo‘g‘il, jasur sarkarda, dushman, Shayxzoda, o‘zbek, sahna asari, burnida xoli bor, xoldor, Xorazmshoh, burch, qo‘shin, Toshkent, shogird, Vatan ozodligi, Sulton Muhammad.

"Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,

Kim yurtdan yovni quvsa, mendurman o‘shal".

Maqsud Shayxzoda.

Jaloliddin Manguberdi hayoti xavf ostida qolgan paytda xatto daxriy ham Oллоhdan madad kutadi. Dushman sovet mamlakatlarining g‘arbiy chegaralarini bosib o‘tib, bir necha oy mobaynida Moskva ostonalariga yetib kelganida, taqdirlari katta xavf ostida qolgan davlat rahbarlari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da‘vat etadi. Ularning fikriga ko‘ra bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da‘vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlarini ruhida tarbiyalashi mumkin edi. Shunday ajoyib buyurtmani olgan Shayxzoda o‘zbek xalqining jasur farzandlaridan biri Jaloliddin haqida sahna asarini yozishga kirishdi. Taniqli adabiyotshunos **Naim Karimov**ning fikriga ko‘ra, urush yillarida hokimiyat vakillari yozuvchilarni o‘tmishdagi mashhur sarkardalar haqida asar yozishga da‘vat etishgan. Ular bunday asarlar xalq va armiyani o‘tmishdagi jasur sarkardalardan, xalq qahramonlaridan ibrat olishga da‘vat etishi, ularni bu mashhur shaxslarning vatanparvarlik fazilatlarini ruhida tarbiyalashi mumkin degan qarashda bo‘lishgan.

Respublikaning o‘sha paytlardagi rahbari **Usmon Yusupov** shoirning asarini tezroq yakunlashi uchun uni yurtimizning xushmanzara maksanlaridan biri Farg‘ona viloyatiga yuboradi. “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!” deya rahbar shoirni ruhlantiradi. Shunday qilib, Maqsud Shayxzoda rafiqasi Sakinaxonim bilan Farg‘onaga borib, olti oy ichida tarixiy dramani yozadi.

Shoir Vodilga yetib borganida, erta bahor bo‘lgani tufayli bog‘bonlar ham boshqa kolxozchilar ham ko‘chat ekish bilan mashg‘ul edilar. Shayxzoda ijodan xorigan soatlarida ular bilan suhbatlashib, o‘zi ham bir-ikki ko‘chat ekdi. Shunday “Ko‘chatxonlik” paytlarida manglayida o‘tgan yillar izi bo‘rtib turgan bir bog‘bon bilan tanishib, unga bag‘ishlab she‘r yozadi. Shoir vafotidan keyin e‘lon qilingan she‘r Garchan Jaloliddin mavzusiga bag‘ishlanmagan bo‘lsada uning usha paytlardagi ruxiy xayoti bilan tanishishimizga yordam beradi.

Mana usha she'r:

Peshonada qadim ajinlar,

Ko'zda ayon tuproqning siri.

Eshitmoqni bilgandan beri

Ariqlarning nag'masin tinglar.

Aslida, shoir xam bog'bondek bir gap. U daraxt ekmasa-da, asar yozadi. Bu asardan uning o'zi emas boshqalar baxramand bo'lishadi. May oyi bo'lsa kerak, Shayxzoda shogirdlaridan biriga ikki enlik xat yozadi. Xatda uning bir necha kitob olib, Vodilga birrov kelib-ketishi so'ralgan edi. Shogird Xorazmshohlar tarixiga doir bir-ikki tarixiy kitobni olib, Vodilga yetib boradi.. So'ngra uning iltimosi bilan Marg'ilonga borib, Xudoyorxon lashkarida xizmat qilgan keksa kishilarni surishtirib topadi va o'sha paytda qo'llangan qurol-arog'larning nomlarini aniqlab keladi. Shundan keyin ustoz shogirdni yetaklab, Xo'jandga boradi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Xo'jand qal'asining mudofaa qo'rg'oniga borib, qadimiy istehkom vayronalarini, Jaloliddin va Temur Malikning izlari hali o'chmagan joylarni o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Odatda shunday sayrlar chog'ida Jaloliddin yoki Temur Malikning qaysi yo'ldan yurib, Sirdaroning qaysi yoqasi orqali daroni kechib o'tganini "o'z ko'zi bilan ko'rgan" yo eshitgan kishilar uchrab qoladilar. Shayxzoda shunday "tirik guvohlar" bilan suhbatlashar ekan, ular bergan ma'lumotlar qanchalik to'g'ri yo noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar, bu olis tarix bilan qiziquvchi kishilarni uchratganidan astoydil quvonar, ularni noto'g'ri ma'lumotlari uchun hijolatga qo'ymagan holda o'zi Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik haqidagi tarixiy haqiqatni zavq bilan so'zlab berar edi.

Shayxzoda asar ustida ana shu tarzda berilib ishladi. Bundan yetti asr muqaddam ro'y bergan o'ta murakkab va dahshatli voqealarni ko'z oldiga yaqqol keltirgandan keyingina asarni yozib tugatdi.

"Jaloliddin Manguberdi dramasi"dan tashqari "Jaloliddin Manguberdi" filmi ham ishlangan. Bu filmni "Oltin qalam" davlat mukofoti sovrindori, taniqli rejissyor Hamid Qahramon tomonidan senary tuzib sur'atga olingan.

Buni qarangki, odamlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini jo'sh urdiruvchi, qahramonlik ruhidagi bu asar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Oradan ko'p yillar o'tsa ham Shayxzodaning asarlari o'z kuch-qudratini namoyon etib kelmoqda. Yaqinda shoir Botir Ergashevning aynan "Jaloliddin Manguberdi" dramasiidagi "Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal, Kim yurtdan yovni quvsa, mendirman o'shal" misrasidan ilhomlanib yozgan she'ri Ozodbek Nazarbekov tomonidan maromiga yetkazib kuylanishi va bu qo'shiq xalqimiz ko'nglidan chuqur o'rin egallagani bunga yorqin misol.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov Maqsud Shayxzoda asari 120-138 bet

2. Mamurova, F. I. (2023). The Fundamental Theorem of Axonometry and Axonometric Projections. AMERICAN JOURNAL OF SCIENCE AND LEARNING FOR DEVELOPMENT, 2(4), 223-226.
3. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA-AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.
4. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2023). KKI XALQ DILBANDI-MAQSUD SHAYXZODA. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(11), 12-13.
5. Mamurova, F. I. (2023, November). KKI XALQ DILBANDI-MAQSUD SHAYXZODA. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 51-52).
6. Farxodovich, P. G. U. (2023, May). Elastik Poydevor Ustidagi Nurlarni Hisoblash Uchun. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 198-202).
7. Ilhom o'g'li, M. E., & Oybek o'g'li, K. A. (2023, November). MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI TARG'IB QILISH. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 53-55).
8. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).
9. Mamurova, F. I. ugli Mustafayev, EI (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.
10. Amirkulovich, T. S. (2023, May). APPLICATION OF MODERN SMALL MECHANISMS IN RAILWAY TRACK REPAIR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 172-176).
11. Mikhailovna, M. M., Uglu, M. E. I., & Uglu, K. J. J. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES WHEN PERFORMING WEIGHING CALCULATIONS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(6), 44-46.
12. Sulaymanovna, S. S. (2023, May). CHANGING EDUCATIONAL STRATEGIES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT UNIVERSITY: FROM LEARNING TO TEACHING STRATEGIES. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 6, pp. 103-108).
13. Pirnazarov, G. U. F. (2023). KO'NDALANG KESIMI TRAPETSIIYASIMON BO'LGAN TEMIR BETON TUTASH BALKALARNI HARAKATLANUVCHI YUKKA HISOBLASH. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(5), 29-34.
14. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021). Basic Theorem of Axonometric Projections. Dimetric Axonometry Construction. In ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).
15. Tursunnazar o'g'li, O. J., & Ilhom o'g'li, M. E. (2023, May). ODDIY FERMA STERJENLARIDA QO'ZG'ALMAS YUKLAR TA'SIRIDAN ZO'RIQISHLARNI TOPISH, ODDIY FERMA STERJENLARIDAGI ZO'RIQISHLARI UCHUN TA'SIR CHIZIQLAR QURISH VA ULARNI BERILGAN YUK BILAN YUKLASH. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 262-268).
16. Begali o'g'li, A. E., Ilhom o'g'li, M. E., & Tursunnazar o'g'li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND

METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.

17. Xalilova, R. X., & Ilhom o'g'li, V. E. (2022, December). ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 120-123).

18. Ilhom o'g'li, M. E. (2022). KO 'P PROLYOTLI SHARNERLI BALKALARNI XARAKATLANUVCHI YUK TA'SIRIGA HISOBLASH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 250-254).

19. Shohjaxon Maxamadro'zi o'g, U., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'L TRANSPORTIDA BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 234-237).

20. Begali o'g'li, A. E., & Ilhom o'g'li, M. E. (2022). TEMIR YO 'LLAR QURILISHIDA BETON VA TEMIRBETON VAZIFALARI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 246-249).

21. Mamurova, F. I., & ugli Mustafayev, E. I. (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.

